

LANGAR OTA MASJIDI ME'MORIY BEZAKLARIDA MOZAIKA SAN'ATI: BADIY-USLUBIY VA TEXNOLOGIK XUSUSIYATLAR



Saburova Yangiljon Ikrom qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

San'atshunoslik va amaliy san'at fakulteti

San'at asarlari va me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash

mutaxassisligi

1-bosqich magistranti.

Xalqaro Turon yozuvchilar uyushmasi a'zosi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21824415>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanining Katta Langar qishlog'ida joylashgan Langar ota masjidining me'moriy bezaklari, xususan, mozaika san'atining badiiy-uslubiy va texnologik xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot tarixiy-me'moriy, qiyosiy-tipologik, formal-uslubiy va material-texnologik tahlil usullariga asoslandi. Masjidning shakllanish tarixi, ikki namozxona va umumiy ayvondan iborat me'moriy tuzilishi, yog'och ustunlar, to'sinli shiflar hamda mozaik bezaklarning bino kompozitsiyasidagi o'rni o'rganildi. Manbalarda kichik namozxona majmuaning qadimiy qismi ekani, keyinchalik unga katta tantanavor zal va umumiy ayvon qo'shilgani, qurilish bosqichlari mozaik lavhadagi yozuv orqali qayd etilgani ko'rsatiladi. Tadqiqot natijalari Langar ota masjididagi mozaika bezaklari monumental me'morchilikka xos badiiy usullarning mahalliy karkasli masjid qurilishiga moslashtirilgan noyob namunasi ekanini ko'rsatdi. Mozaikaning rang, ritm, geometrik va epigrafik tuzilishi me'moriy shaklni badiiy jihatdan yaxlitlashtirib, binoning sakral mazmunini kuchaytirgan. Maqolada mazkur bezaklarni saqlashda tarixiy materiallarning haqiqiylikini ta'minlash, fotofiksatsiya, laboratoriya diagnostikasi hamda minimal aralashuv tamoyillariga rioya etish zarurligi asoslandi.

Kalit so'zlar: Langar ota masjidi, Katta Langar, Qashqadaryo me'morchiligi, mozaika, koshin, me'moriy bezak, epigrafika, restavratsiya.

Аннотация. В статье проанализированы архитектурные декоративные элементы мечети Лангар-ота, расположенной в кишлаке Катта Лангар Камашинского района Кашкадарьинской области, с особым вниманием к художественно-стилистическим и технологическим особенностям мозаичного искусства. Исследование основано на историко-архитектурном, сравнительно-типологическом, формально-стилистическом и материально-технологическом методах анализа. Рассмотрены история формирования мечети, её архитектурная структура, состоящая из двух молитвенных залов и общего айвана, деревянные колонны, балочные перекрытия, а также роль мозаичного декора в общей композиции здания. Источники свидетельствуют о том, что малый молитвенный зал является наиболее древней частью комплекса, а позднее к нему были пристроены большой парадный зал и общий айван. Этапы строительства были зафиксированы в надписи на мозаичной панели. Результаты исследования показывают, что мозаичный декор мечети Лангар-ота представляет собой уникальный пример адаптации

художественных приёмов монументальной архитектуры к местной каркасной конструкции мечети. Цветовое, ритмическое, геометрическое и эпиграфическое построение мозаики обеспечивает художественную целостность архитектурной формы и усиливает сакральное содержание сооружения. В статье обоснована необходимость сохранения подлинности исторических материалов, проведения фотофиксации, лабораторной диагностики и соблюдения принципа минимального вмешательства при реставрации декоративных элементов.

Ключевые слова: *мечеть Лангар-ота, Катта Лангар, архитектура Кашкадарьи, мозаика, изразец, архитектурный декор, эпиграфика, реставрация.*

Abstract. *This article examines the architectural decoration of the Langar Ota Mosque, located in the village of Katta Langar in the Qamashi district of the Kashkadarya region, with particular attention to the artistic, stylistic, and technological features of its mosaic art. The study is based on historical-architectural, comparative-typological, formal-stylistic, and material-technological methods of analysis. The research explores the historical formation of the mosque, its architectural structure consisting of two prayer halls and a shared ayvan, its wooden columns and beam ceilings, as well as the role of mosaic decoration in the overall composition of the building. Historical sources indicate that the smaller prayer hall represents the earliest part of the complex, while a larger ceremonial hall and a common ayvan were added later. The construction stages were recorded in an inscription placed on a mosaic panel. The findings demonstrate that the mosaic decoration of the Langar Ota Mosque is a unique example of adapting artistic techniques characteristic of monumental architecture to the local timber-frame mosque tradition. The colour scheme, rhythm, geometric patterns, and epigraphic composition of the mosaics contribute to the artistic integrity of the architectural form and reinforce the sacred meaning of the building. The article also substantiates the importance of preserving the authenticity of historical materials, carrying out photographic documentation and laboratory diagnostics, and adhering to the principle of minimal intervention in the conservation and restoration of the decorative elements.*

Keywords: *Langar Ota Mosque, Katta Langar, architecture of Kashkadarya, mosaic, glazed tile, architectural decoration, epigraphy, restoration.*

Kirish

O'zbekiston hududidagi tarixiy masjidlar me'morchiligi faqat konstruktiv va funksional yechimlari bilan emas, balki g'isht terish, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik, koshinkorlik va mozaika kabi san'at turlarining o'zaro uyg'unligi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Qashqadaryo vohasida joylashgan yodgorliklar hududning Buyuk ipak yo'li tizimidagi mavqei, tog'li va voha madaniyatining o'zaro ta'siri hamda mahalliy hunarmandchilik an'alarini aks ettiradi.

Langar ota masjidi va maqbarasi Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanining Katta Langar qishlog'ida, tog'li tabiiy landshaft bag'rida joylashgan tarixiy-me'moriy majmuadir. Manbalarda ushbu inshootlarning XV asr oxiri – XVI asr o'rtalarida shakllangani, ularning bunyod etilishi hududdagi nufuzli Kattalangar shayxlari, xususan, Muhammad Sodiq faoliyati bilan bog'liqligi qayd etiladi. "Langar" so'zi "langar" yoki "yakor" ma'nosini anglatib, majmuaning Shahrisabzdan G'uzor va Qarshi yo'nalishidagi qadimiy karvon yo'liga yaqin joylashuvi bilan mazmunan bog'lanadi.

Langar ota masjidi mahalliy masjid me'morchiligi va monumental bezak san'ati sintezining nodir namunalaridan biridir. Inshootning karkasli tuzilishga ega bo'lishiga qaramay,

uning ichki va tashqi qismlarida Markaziy Osiyo monumental me'morchiligiga xos mozaik bezaklar ishlatilgani tadqiqotchilar tomonidan alohida ta'kidlangan. Masjidda qurilish bosqichlari haqida ma'lumot beruvchi yozuvli mozaik lavhaning mavjudligi bezakning nafaqat estetik, balki tarixiy-hujjatli funksiyani ham bajarganini ko'rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi Langar ota masjidi me'moriy bezaklaridagi mozaika san'atining kompozitsion tuzilishi, rang yechimi, uslubiy manbalari, bajarilish texnologiyasi va yodgorlikning umumiy badiiy qiyofasidagi o'rnini aniqlashdan iborat.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- masjidning tarixiy va me'moriy shakllanish bosqichlarini tahlil qilish;
- mozaika bezaklarining me'moriy qismlar bilan bog'lanishini aniqlash;
- bezaklarning geometrik, o'simliksimon va epigrafik xususiyatlarini baholash;
- mozaik bezaklarning taxminiy texnologik tuzilishini tavsiflash;
- yodgorlikni saqlash va konservatsiya qilish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Materiallar va metodlar

Tadqiqot manbashunoslik va san'atshunoslik yo'nalishidagi sifat tahliliga asoslandi. Asosiy manba sifatida X.T. Sultonov va N.V. Gilmanovanning Qashqadaryo viloyati tarixiy-me'moriy hamda badiiy merosiga bag'ishlangan monografiyasidan foydalanildi. Ushbu asarda Langar ota masjidi va maqbarasining joylashuvi, davrlashtirilishi, konstruktiv tuzilishi va bezak xususiyatlari tarixiy, arxiv va me'moriy kuzatuv materiallari asosida yoritilgan. Monografiyada Qashqadaryo yodgorliklarining devor, shift, hovli va me'moriy bezaklari, jumladan, mayolika hamda mozaika qoldiqlari asosida o'rganilgani qayd etilgan.

Me'moriy kompozitsiya va monumental bezaklarning umumiy nazariy asoslarini aniqlashda F.R. Hasanova tomonidan yaratilgan "Me'morchilik asoslari" darsligidagi me'morchilikning konstruktiv, fazoviy va badiiy yaxlitligi haqidagi qarashlardan foydalanildi. Mazkur manbada arxitektura moddiy-konstruktiv yechim bilan badiiy-estetik mazmunning birligi sifatida talqin qilinadi.

O'zbek amaliy bezak san'atidagi naqsh, rang, shakl va me'moriy yuzani qismlarga ajratish tamoyillari S. Bulatovning tadqiqotlari asosida ko'rib chiqildi. Muallif tarixiy binolardagi geometrik va o'simliksimon naqshlarni xalqning badiiy tafakkuri, estetik qarashlari va ramziy tasavvurlarini ifodalovchi vosita sifatida tavsiflaydi.

Mozaika va unga yondosh tarixiy materiallarni saqlash masalalarini yoritishda A.F. O'lmasovning konservatsiya nazariyasi, tarixiy materiallar, bog'lovchilar va restavratsiya vositalari haqidagi ma'lumotlari qo'llanildi. Muallif konservatsiyani yodgorlikni uzoq muddatli saqlashga qaratilgan tadqiqot, hujjatlashtirish, profilaktika va ta'mirlash tadbirlari majmui sifatida izohlaydi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Tarixiy-xronologik metod** — masjidning qurilish bosqichlari va tarixiy muhitini aniqlashda.
2. **Formal-uslubiy tahlil** — bezaklarning kompozitsiyasi, ritmi, rangi va naqsh tizimini o'rganishda.
3. **Qiyosiy-tipologik metod** — Langar mozaikalarini Markaziy Osiyo monumental me'morchiligi bezaklari bilan qiyoslashda.
4. **Material-texnologik tahlil** — koshin bo'laklari, sir, rang beruvchi oksidlar va mahkamlovchi qorishmalarning ehtimoliy xususiyatlarini tavsiflashda.
5. **Konservatsion tahlil** — bezaklarning yemirilish omillari va saqlash yo'llarini belgilashda.

Tadqiqot bevosita laboratoriya yoki dala o'rchovlari asosida emas, mavjud ilmiy va tasviriy manbalarni tahlil qilish asosida bajarildi. Shu sababli mozaikaning kimyoviy-mineralogik tarkibiga oid ayrim xulosalar tarixiy texnologiyalar bilan qiyoslash asosidagi ilmiy talqin hisoblanadi.

Natijalar

Langan ota masjidi qishloqning quyi qismida joylashgan baland to'rtburchak hajmli bino bo'lib, ikki namozxona va ularni birlashtiruvchi chuqur umumiy ayvondan tashkil topgan. Ayvonning to'sinli tomi ikki qator nozik, o'ymakor yog'och ustunlarga tayangan. Kichik namozxona to'rtta, katta namozxona esa beshta ustun vositasida yopilgan. Shift konstruksiyasida an'anaviy to'sinlar va mayda "vassa" yog'ochlaridan tashkil topgan plafon tizimi qo'llanilgan.

Masjidning kichik zali qadimiyroq bo'lib, uning dastlabki karkasli devorlari keyinchalik pishiq g'ishtdan qurilgan devorlar ichiga kiritilgan. Keyingi qurilish bosqichida katta tantanavor namozxona va umumiy ayvon bunyod etilgan. Bunday rivojlanish masjidning bir vaqtning o'zida emas, balki diniy jamoaning ehtiyojlari ortishi bilan bosqichma-bosqich kengayganini ko'rsatadi.

Masjidning me'moriy qiyofasida mahalliy xalq me'morchiligiga xos ustunli-ayvonli tizim monumental bezak san'ati bilan uyg'unlashtirilgan. Natijada oddiy konstruktiv sxema bezak yordamida tantanavor va sakral muhitga aylantirilgan.

Langan ota masjidining eng muhim xususiyatlaridan biri — karkasli qishloq masjidi uchun odatiy bo'lmagan darajada boy mozaik dekor bilan bezatilganidir. Manbada bu mozaika Markaziy Osiyo monumental me'morchiligiga xos bezak sifatida tavsiflangan.

Mozaika bezaklarining joylashtirilishi tasodifiy emas, balki me'moriy kompozitsiyaning asosiy tugunlariga bog'langan. Ular quyidagi vazifalarni bajargan:

- kirish va o'tish qismlarini vizual belgilash;
- mehrob yoki namoz yo'nalishini badiiy ta'kidlash;
- devor yuzalarini gorizont va vertikal qismlarga ajratish;
- yozuvli lavhalar orqali qurilish tarixi hamda diniy mazmunni ifodalash;
- g'isht, yog'och va ganch yuzalar orasida rangli kompozitsion bog'lanish hosil qilish.

Masjiddagi yozuvli mozaik lavhada inshootning qurilish bosqichlariga oid ma'lumot berilgani qayd etilgan. Bu holat mozaikani oddiy bezakdan tarixiy epigrafik hujjat darajasiga ko'taradi. Lavha me'morning, homiyni yoki qurilish jarayonining xotirasini saqlovchi vosita sifatida xizmat qilgan bo'lishi mumkin.

Langan ota masjidi mozaik bezaklari Markaziy Osiyo islom me'morchiligidagi uch asosiy bezak yo'nalishining o'zaro uyg'unligi asosida shakllangan deb baholash mumkin:

1. Geometrik naqshlar
2. O'simliksimon naqshlar
3. Epigrafik kompozitsiyalar

Geometrik naqshlarda kvadrat, to'rtburchak, yulduzsimon, ko'pburchak va tasmasimon shakllarning takrorlanishi orqali ritmik tizim yuzaga kelgan. Bunday naqshlarda alohida elementning o'zi emas, balki uning cheksiz takrorlanishi asosiy estetik ma'no kasb etadi. Takrorlanuvchi geometrik tuzilma islom san'atidagi olamning tartiblilik, davomiyligi va ilohiy mutanosiblik g'oyalarini ifodalaydi.

O'simliksimon naqshlarda novda, barg, g'uncha, gul va islimiy shakllarning stilizatsiyasi kuzatiladi. Ular tabiiy o'simlikning bevosita tasviri emas, balki geometrik tartibga solingan badiiy timsolidir. S. Bulatov o'zbek amaliy bezak san'atidagi geometrik va o'simliksimon naqshlarni ajdodlarning orzu-umidlari, estetik dunyoqarashi va badiiy tafakkurini ifodalovchi vosita sifatida baholaydi.

Epigrafik bezaklar masjidning diniy funksiyasi bilan bevosita bog'liq. XI–XII asrlardan boshlab Markaziy Osiyo me'morchiligida arab yozuvi bino interyeri va eksteryerining asosiy badiiy vositalaridan biriga aylangan. Kaligrafiya monumental tasvir o'rnini egallab, Qur'on oyatlari, diniy formulalar va tarixiy ma'lumotlarni me'moriy kompozitsiyaga kiritgan.

Langar ota masjididagi yozuvli mozaika ham ushbu an'ananing davomidir. Unda yozuv mazmuni va shakli yagona kompozitsiyaga birlashtirilib, harflar faqat axborot uzatuvchi vosita emas, balki ritm va bezak hosil qiluvchi badiiy element sifatida ishlatilgan.

Markaziy Osiyo mozaika san'atida ko'k, moviy, lojuvard, oq, yashil, sariq va qora ranglarning uyg'unligi keng tarqalgan. Langar ota masjidining mozaik dekorida ham hudud me'moriy bezak an'analarga xos ranglar ishlatilgan deb baholash mumkin.

Ko'k va moviy ranglar osmon, cheksizlik, osoyishtalik va ma'naviy poklik ramzi sifatida masjidning sakral muhitini kuchaytirgan. Oq rang yozuv va geometrik shakllarni ajratib ko'rsatish, kompozitsiyani yengillashtirish vazifasini bajargan. Qora yoki to'q ranglar kontur sifatida xizmat qilib, elementlar chegarasini aniq belgilagan. Sariq va oxra ranglari esa kompozitsiyaga ilqlik kiritgan.

Mozaikaning yorqin sirlangan yuzasi yorug'likni qaytarib, kun davomida bezak ko'rinishining o'zgarishiga sabab bo'lgan. Natijada devor yuzasi statik rangli tekislik emas, balki yorug'lik va soya ta'sirida jonlanadigan dinamik badiiy qoplamaga aylangan.

Masjidning yog'och konstruksiyalaridagi rangtasvir bezaklari ham mozaika bilan umumiy rang uyg'unligini hosil qilgan bo'lishi mumkin. Qashqadaryo masjidlariga oid tasvirlarda qizil, ko'k, oq, feruza, yashil va oxra-oltinsimon ranglarning o'zaro mutanosib qo'llangani qayd etiladi.

Langar ota masjidi mozaikasining aniq laboratoriya tahlillari taqdim etilmagan bo'lsa-da, Markaziy Osiyo an'anaviy me'moriy mozaikasi texnologiyasi asosida uning bajarilish jarayonini quyidagicha izohlash mumkin.

Birinchi bosqichda tozalangan gil qorishmasidan yassi koshin plitalari tayyorlangan. Ular quritilib, dastlabki pishirishdan o'tkazilgan. Keyin plita yuzasiga kerakli rangdagi sir qoplamasi surtilib, yuqori haroratda qayta pishirilgan. Rang olishda turli metall oksidlaridan foydalanilgan: kobalt birikmalari ko'k, mis birikmalari feruza yoki yashil, marganets to'q jigarrang va qora, temir birikmalari sariq yoki oxra tuslar hosil qilgan.

Sirlangan plitalar naqshning oldindan tayyorlangan chizmasi asosida mayda geometrik yoki egri chiziqli bo'laklarga kesilgan. Har bir bo'lak mozaika kompozitsiyasining alohida qismi sifatida ishlangan. So'ng qismlar naqsh asosida teskari yoki to'g'ri usulda yig'ilib, ganch, ohak-ganch yoki boshqa mineral qorishma yordamida devor yuzasiga mahkamlangan.

Mozaikada rang shaklning ustiga bo'yalmasdan, rangli koshin bo'lagining o'zi naqsh elementi bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli mozaika devoriy rangtasvirga qaraganda tashqi muhit ta'siriga nisbatan chidamliroq bo'ladi. Biroq koshinning saqlanishi uning sir qatlamiga, keramik asosning g'ovakligiga, qorishmaning mustahkamligiga va namlik rejimiga bog'liq.

Masjid bezaklarida mozaikaning pishiq g'isht, ganch suvoq va yog'och konstruksiyalar bilan qo'shib ishlatilishi turli fizik xususiyatga ega materiallarning yagona kompozitsiyada birlashganini anglatadi. Harorat va namlikning o'zgarishi bu materiallarda turlicha kengayish va qisqarish jarayonini yuzaga keltirib, vaqt o'tishi bilan yoriqlar, ajralishlar yoki koshin bo'laklarining tushib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Muhokama

Langar ota masjidining mozaika bezaklari uslubiy jihatdan ikki me'moriy an'ana tutashgan nuqtani namoyon etadi. Bir tomondan, masjid ikki zal, chuqur ayvon, yog'och ustun va to'sinli shiftlardan iborat mahalliy xalq me'morchiligiga mansub. Ikkinchi tomondan, u monumental

saroy, madrasa va maqbaralarga xos mozaika bilan boyitilgan. Shu sababli Langar masjidi bezagi oddiy monumental usulning ko'chirilishi emas, balki uning mahalliy konstruktiv muhitga ijodiy moslashtirilishi sifatida baholanishi kerak.

Masjidda mozaika yuzaning barcha qismini bir xil qoplamaydi. U me'moriy jihatdan muhim nuqtalarni ajratib, binoning fazoviy iyerarxiyasini belgilaydi. Kichik qadimiy zal, katta tantanavor namozxona va ayvon o'rtasidagi tarixiy farqlar bezak darajasi va uslubida ham namoyon bo'lgan bo'lishi mumkin. Yozuvli mozaik lavhaning qurilish bosqichlarini aks ettirishi ushbu taxminni kuchaytiradi.

Langar ota masjididagi bezaklarning mahalliy yog'och o'ymakorligi bilan birlashishi ham katta ahamiyatga ega. Yog'och ustunlar konstruktiv tayanch bo'lishi bilan birga, interyer ritmini shakllantiradi. Mozaika esa devor va me'moriy markazlarda rangli aksent yaratadi. To'sinli shift, o'ymakor ustun va yaltiroq koshin yuzalarining uyg'unligi interyerda turli fakturalar dialogini hosil qiladi.

Mozaikaning epigrafik mazmuni masjidning ma'naviy mohiyatini ochib beradi. Islom me'morchiligida yozuv ko'pincha bezak va mazmunni birlashtiradi. Matn o'qiladigan axborot, harflarning shakli esa vizual naqsh sifatida qabul qilinadi. Shu jihatdan Langar mozaikasi tarixiy, diniy va badiiy axborotning yagona moddiy tashuvchisidir.

Katta Langarning tog'li hududda joylashuvi yodgorlikka xos mikroiklimni shakllantiradi. Haroratning mavsumiy o'zgarishi, yog'in, shamol, yer va devorlardagi kapillyar namlik, tuzlarning kristallanishi, biologik qatlamlar hamda inson omili mozaika yuzalariga zarar yetkazishi mumkin.

Asosiy yemirilish holatlari quyidagilar bo'lishi ehtimol:

- sir qatlamining xiralashishi va mayda yorilishi;
- koshin asosining qatlamlanishi;
- chok qorishmalarining kukunlanishi;
- mozaika bo'laklarining devordan ajralishi;
- yuzada tuz dog'lari va biologik ifloslanish paydo bo'lishi;
- oldingi ta'mirlashlarda mos kelmaydigan sementli qorishmalardan foydalanish;
- yo'qolgan qismlarning tarixiy namunalarga zid tarzda qayta to'ldirilishi.

Konservatsiya yodgorlikni o'zgartirib yangilash emas, balki uning mavjud tarixiy holatini imkon qadar saqlashga qaratilishi kerak. A.F. O'lmasov konservatsiyani tadqiqot, hujjatlashtirish, profilaktika va zarur ta'mirlash tadbirlarining ilmiy tizimi sifatida izohlaydi.

Shu asosda Langar ota masjidi mozaikalarini saqlashda quyidagi ketma-ketlik maqsadga muvofiq:

1. umumiy va detalli fotofiksatsiya;
2. mozaika xaritasi va shikastlanish kartogrammasini tuzish;
3. sir, keramika va qorishmadan mikro-namunalar olib laboratoriya tahlili o'tkazish;
4. namlik va tuzlanish manbalarini aniqlash;
5. bo'shashgan qismlarni vaqtinchalik himoyalash;
6. tarixiy qorishmaga fizik-kimyoviy jihatdan mos material bilan mustahkamlash;
7. yetishmayotgan qismlarni faqat kompozitsiyani o'qish uchun zarur darajada to'ldirish;
8. yangi va tarixiy qismlarni yaqin masofadan ajratish imkonini saqlash;
9. restavratsiyadan oldin, jarayon davomida va undan keyin to'liq hujjatlashtirish.

Tarixiy bezaklarni saqlashda restavratsiya yodgorlikning dastlabki materiali, proporsiyasi va badiiy xususiyatlariga mos bo'lishi, saqlanib qolgan dekorning yo'q qilinishiga olib kelmasligi zarur.

Xulosa

Langar ota masjidi Qashqadaryo vohasi me'morchiligida mahalliy ustunli-ayvonli masjid qurilishi bilan monumental mozaika san'atining o'zaro uyg'unlashgan noyob namunasidir. Masjidning ikki namozxonadan iborat tuzilishi, qadimiy kichik zalning keyinchalik katta zal va umumiy ayvon bilan kengaytirilishi yodgorlikning bosqichma-bosqich shakllanganini ko'rsatadi.

Masjiddagi mozaik bezaklar quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- me'moriy kompozitsiyaning muhim qismlarini ta'kidlaydi;
- geometrik, o'simliksimon va epigrafik elementlarni birlashtiradi;
- rang va ritm orqali interyerining sakral ta'sirchanligini oshiradi;
- qurilish bosqichlari haqidagi yozuv orqali tarixiy-hujjatli vazifani bajaradi;
- mahalliy yog'och me'morchiligi va monumental koshinkorlik an'alarining sintezini namoyon etadi.

Texnologik jihatdan mozaika sirlangan koshin plitalarini alohida rangli bo'laklarga ajratish, naqsh asosida yig'ish va mineral qorishma yordamida me'moriy yuzaga o'rnatishga asoslangan. Bunday texnika naqshning rang barqarorligi va monumentalligini ta'minlasa-da, namlik, tuzlanish, harorat o'zgarishi va noto'g'ri ta'mirlashga sezgir hisoblanadi.

Langar ota masjidi mozaikalarini saqlashda bezaklarni yangidan yaratish emas, balki asl materialni maksimal darajada asrash, ilmiy diagnostika o'tkazish, barcha amaliyotlarni hujjatlashtirish va minimal aralashuv tamoyiliga amal qilish ustuvor bo'lishi lozim. Yodgorlikning kelgusidagi tadqiqotlarida mozaika tarkibini laboratoriya usulida aniqlash, yozuvli lavhani epigrafik jihatdan to'liq o'qish va bezaklarning raqamli rekonstruksiyasini yaratish muhim ilmiy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bulatov, S. (1991). *O'zbek xalq amaliy bezak san'ati*. Toshkent: Mehnat.
2. Hasanova, F. R. (2025). *Me'morchilik asoslari*. Andijon: Omadbek Print Number One.
3. O'lmasov, A. F. (2022). *Konservatsiya asoslari*. Toshkent: Fan ziyosi.
4. Sultonov, X. T., & Gilmanova, N. V. (2022). *Istoriko-arxitekturnoye i xudojestvennoye naslediye Kashkadari*. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi.
5. *Restavratsiya proizvedeniy stankovoy maslyanoy jivopisi*. (1977). Moskva: Iskusstvo.